

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2024 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari:	Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib:	Dilafroz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief:	Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary:	Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbayev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Nadir Jorakoziyev.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Mundarija

Lingvistika

Shuhrat Hayitov

Bobur asarlarining filologik tadqiqi.....6

Kamola Rixsiyeva

Qa= asosli lingvistik birliklarning semantik to'r asosidagi tahlili19

O'razova Iqbol

Eski o'zbek tilidagi "holat" semali frazemalar tahlili (XIV asrning II yarmi manbalari asosida)28

Mamarajabova Iroda

Eski o'zbek turkiy tildagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar taraqqiyoti42

Ma'suma Mo'minova

Suv komponentli frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi57

Israilova Saodat Turapovna, Dilnoza Jumanova

Diskurs va uning ilmiy talqini67

Zahro Abruyeva

Ijtimoiy muloqotga xos ayrim murojaat shakllarining lingvokognitiv tahlili75

Shaxlo Baxodirova

"O'tgan kunlar" romanidagi lakunar birliklar88

Zarnigor Davronova

Badiiy matnda antroponim va unga yondosh tushunchalarning lingvistik xususiyatlari (Abdulla Qodiriy ijodi asosida)100

Zarifa O'rinova

Aforizmlar – intertekstual birlik sifatida113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Tezauruslardagi shaxs otlarining paradigmaticasi125

Mirzayeva Go'zal

Dunyo va turk tilshunosligidagi neyrolingvistik tadqiqotlar xususida132

Azizova Nilufar

"Devoni lug'otit turk"dagi "oziq-ovqat" semali leksik birliklarni semantik maydon asosida tadqiq etish142

Content

Linguistics

Shukhrat Khaitov

A philologik study of Babur's works6

Kamola Rixsiyeva

Semantic web-based analysis of qa= based linguistic units19

Iqbol Urazova

Analysis of phrases with the term "state" in the old uzbek language
(Based on the sources of the second half of the 14th century)28

Mamarajabova Iroda

Development of lexemes with the concept of time in the straotürkic
language42

Ma'suma Mo'minova

Expression of national – cultural signs in phrases with a water
component57

Israilova Saodat Turapovna, Jumanova Dilnoza

Discourse and its scientific interpretation67

Zakhro Abrueva

Linguistic-cognitive analysis of social communication forms of
address75

Shaxlo Baxodirova

Lacunar units in the novel "O'tgan kunlar"88

Zarnigor Davronova

Linguistic features of anthroponym and related concepts in literary text
(based on the works of Abdullah Qadiri)100

Zarifa O'rinova

Aphorisms – as an intertextual unit113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Paradigmatics of personal nouns in thesauruses125

Go'zal Mirzayeva

About neurolinguistic research in world and Turkish linguistics132

Nilufar Azizova

Studying the lexical units of "food" in the "Devoni lugotit turk" based on
the semantic field142

Ijtimoiy muloqotga xos ayrim murojaat shakllarining lingvokognitiv tahlili

Zaxro Abruyeva¹

Abstrakt

Mazkur tadqiqotda tilshunoslikning dolzarb tadqiqot obyektiga aylangan til va tafakkur munosabatlari mohiyati yoritildi, o'zbek tilidagi murojaat shakllarining individlar tomonidan nutqqa ko'chirilishi, unda ma'lum bir shaxs xarakteri, dunyoqarashi va kayfiyati bilan bir qatorda milliy xususiyatlarning, muayyan millatga xos qadriyatlarining namoyon bo'lishi hamda tinglovchiga bu nutqiy birliklarning ta'siri muammolari yoritildi, mazkur jarayonlarda idrok faoliyati, atrof-muhitni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan yangi bilimlarning yillar davomida ongda qay holatda saqlanishi va nominatsiya jarayonidagi ifodasi, shaxs tafakkurida hosil bo'ladigan voqelik xususidagi yangi bilimlarning eskisi bilan integratsiyasi xususiyatlarining tilda aks etishi murojaat shakllari asnosida tadqiq qilindi. Shuningdek, murojaat shakllarining tarixiy taraqqiyot natijasida semantikasi va kognitiv asosida yuzaga keladigan o'zgarishlar aniqlanib, ularning nutqiy vaziyatdagi ahamiyati o'rganildi.

Kalit so'zlar: *Til, tafakkur, murojaat shakllari, ijtimoiy muloqot, idrok, kognitiv bilim, antropotsentrizm, milliy xususiyatlar.*

Kirish

Bugungi kunda jahon tilshunosligi o'z yondashuvlari va qarashlarini yangicha paradigmalar asosida rivojlantirish yo'lidan bormoqda. Butun dunyoda kechayotgan globallashtirish jarayoni tilshunoslik sohalarini ham chetlab o'tmadi. Natijada sistem-struktur tilshunoslikdan antroposentrik tadqiqotlarga asosiy e'tibor qaratildi. Antroposentrizmning tilda voqelanishi asosida sotsiolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi yangi yo'nalishlar paydo bo'la boshladi. Dunyo tilshunosligida inson omilini tadqiq qilishda fundamental ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, til va tafakkur munosabatini o'rganish, til birliklarining tafakkurda voqelanishi, ularning individlar tomonidan idrok etilish

¹ *Abruyeva Zaxro* – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU doktoranti.

E-pochta: zaxroabrueva99@gmail.com

Iqtibos uchun: Abruyeva Z. Ijtimoiy muloqotga xos ayrim murojaat shakllarining lingvokognitiv tahlili. *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika*. 2024-2: 75-87.

xususiyatlarini o'rganish bugungi global taraqqiyotning dolzarb masalalaridan biridir.

Insonning fikrlash jarayoni uning tili bilan bog'lanadi. Til tafakkurni moddiylashtiruvchi vosita. Tafakkur o'zicha qiyofalanmaydi, u til orqali va til materialida o'z qiyofasiga ega bo'ladi, real shakl kasb etadi. Bu esa kognitiv lingvistikaning tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Insonlararo kundalik aloqalarni nutqiy muloqotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zaro muloqot jarayonida inson lisoniy shaxs sifatida o'zini namoyon qiladi. Muloqot jarayonida murojaat shakllaridan o'rinli foydalanish, nutqning kommunikativ maqsadini to'liq namoyon qilishda mazkur shakllarni to'g'ri tanlay olish, nutq qaratilgan shaxsga xos xususiyatlar va so'zlovchining unga bo'lgan munosabatini e'tiborga olgan holda aloqaga kirisha olishi, mazkur jarayonlarda tafakkurning roli masalalarini tadqiq qilish hamda ularning nutq sohiblari tomonidan o'zlashtirilishi tadqiqi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy qism

Kognitiv lingvistika sohasida tilshunolarimiz ko'pgina yutuqlarga erishgan bo'lsalar-da, tilga oid birliklarning, xususan, murojaat shakllarining kognitiv jihatdan tafakkur bilan bog'liq holda o'rganish borasidagi ishlarning mavjud emasligi bu sohada ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Narsa-predmet va voqea-hodisa haqidagi yangi tushuncha paydo bo'lib, tilda o'z shaklini topa olmayotgan bo'lsa, oldindan tilda mavjud bo'lgan fonetik "surat" – so'zdan foydalaniladi, unga yangi vazifa – yangi ma'no yuklanadi. Chunki tildagi asosiy va yetakchi jihat ma'nodir. Bu haqda I.L.Andreyev tomonidan ta'kidlangan A.N.Leontyevning quyidagi fikrini keltirish o'rinlidir: "Insonda hissiy obrazlar yangi xususiyat – ma'nolilik xususiyatiga ega bo'ladi. Inson ongini shakllantiruvchi eng muhim narsa ham ma'nodir".

Ma'no va tushunchasiz til mavjud bo'lmaydi. Kishilar o'z murojaat va munosabatlarida ana shu ma'noga asoslanadilar. Aks holda til o'z vazifasini bajara olmaydi, u o'zining asosiy vazifasini faqat ma'no va tushunchalar tufayli bajaradi, har qanday xabar, ma'lumot ma'no hamda tushuncha asosida shakllanadi va yuzaga chiqadi. Inson va jamiyatning o'zi ham ma'no va tushunchalar, til va nutq tufayli mavjuddir. Agar "...jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy va tushunarli til bo'lmasa, jamiyatdagi ishlab chiqarish to'xtaydi, jamiyat sifatida yashash tugaydi va u parchalanib ketadi". Demak, insonning inson va jamiyatning shakllanish jarayonida ham

tilning o'рни katta va shuning uchun ko'p olimlar "inson va jamiyat paydo bo'lishi jarayonidagi zaruriy komponentlardan biri til va nutqning shakllanishi bo'ldi" deb hisoblashadi.

Muloqot jarayonida doimiy faol, hamisha qo'llanadigan muayyan lisoniy birliklar bor. Mazkur til birliklarini alohida olganimizda ahamiyatsizdek tuyulishi mumkin, ammo nutq vaziyatida muloqot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ular muayyan millat vakillari uchun tipik hodisa hisoblanadi. Mazkur birliklar har bir millat kishisiga bolalikdan o'zlashib, ma'lum bo'lib, turlicha suhbatlarda, turlicha sharoitlarda, turlicha lisoniy jarayonlarda yuzaga chiqadi, kommunikatsiyani tiklash, uni faollashtirish, nutqiy faoliyatni me'yorida ushlab turish uchun xizmat qiladi (Ahmedova 2008, 113). Ular murojaat shakllaridir. Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, qo'rqinch, gina, iltifot, nafrat kabi ma'no ottenkalari qo'shilgan holda ifodalanishi, eng avvalo, ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bog'liq. Til esa ana shu munosabatni qanday bo'lsa o'shanday, asliga mos holda ro'yobga chiqishi uchun vosita bo'ladi.

Murojaat shakllari barcha xalqlarga muloqotni zarur tarzda olib borish uchun katta ahamiyat kasb etishi, suhbatdoshlarning yashash joyi, millati, jinsi, yoshi, kasbi va boshqa ijtimoiy belgilariga oid ma'lumot berishi haqida mulohaza yuritiladi. Tildagi mazkur birliklarni madaniyatdan ayri holda tasavvur qilish mumkin emas. Yakovenko ta'kidlaganidek, madaniyatning barcha sohalari, barcha ma'naviy va madaniy birliklari inson ongida o'z aksini topadi. Shuning uchun ham madaniyatda biror narsa yo'qki, inson tafakkurida o'z aksini topmasa va idrok qilinmasa. Madaniyatning inson ongida aks topishida belgi tizimlarining roli katta va buning eng asosiy vositasi, albatta, tabiiy til tizimidir. Ammo madaniyatda mavjud bo'lgan kognitiv birliklarning ba'zilar lisoniy voqelanish jarayonidan chetda qolishi, ya'ni lisoniy nom olmasdan qolishi ham ehtimoldan holi emas. Shunday ekan har bir madaniy birlik, albatta, kognitiv tafakkurda idrok etilmay qolmaydi. Har bir shaxs tug'ilganidan olamni o'rgana boshlaydi. Atrof-muhitdagi jismlar, hodisalar va shaxslarni ularning xususiyatidan hamda til imkoniyatidan kelib chiqqan holda nomlaydi. Bu esa tafakkurning idrok faoliyati kognitiv qobiliyat bilan uzviy bog'liqdir. Ular turli so'zlashuv jarayonlarida, turfa sharoitlar va lisoniy jarayonlarda vujudga keladi, kommunikatsiya jarayonini tiklash, bu jarayonni faollashtirish, nutqiy faoliyatni me'yorida ushlash uchun xizmat qiladi.

Ilmiy manbalarda ko'p xalqlar tilida milliylikni saqlagan holda

murojaat shakllarini qo'llash bir qancha omillarga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. O'zbek millatiga xos murojaat shakllari quyidagi omillar asosida belgilanadi:

1. Ijtimoiy mansublik.
2. Kasblar, lavozimlar, unvonlar.
3. Suhbatdoshlarning tanish-notanishligi.
4. Nutqiy harakat sharoiti.
5. Muloqotchilarning yoshi.
6. Muloqotchilarning jinsi.
7. Yashash joyi.
8. Uslubiy holat.
9. Muloqotchilar xarakteri (Iskandarova 1993, 67).

Barcha lisoniy birliklarning shakllanishi insonning voqelikni bilish jarayonida, sodda qilib aytganda, inson va voqelik munosabatida yuzaga keladigan mental tasavvur bilan bog'liqdir. Insonda muayyan voqelik xususida bilim paydo bo'lgandagina u lisoniy nomga ega bo'ladi. Demak, har bir lisoniy hodisaning vujudga kelishi, avvalo, tafakkur faoliyati bilan aloqadordir.

Zamonaviy kognitiv psixologiya namoyondalari U.Maturana va F.Varelalarning fikricha, bilimning inson tafakkurida namoyon bo'lishi ikki asosiy usul yordamida vujudga keladi:

1. Kognitiv holat yoki jarayonlarning (bu jarayon hissiy idrokdan boshlanadi) aks etishi;
2. Ma'lum tashqi hodisa, voqealarning tavsiflash usuli (Safarov 2006, 46).

Shu asosda yaratilgan bilimlar olam manzarasidagi har bir detalni, bo'lakni nomlashda tayanch vazifasini o'taydi. Yana shuni ta'kidlashimiz joizki, yaratilayotgan kognitiv modellar inson tarbiya topgan madaniy muhit bilan bog'liqdir, zero, kognitiv birliklar madaniyatda mavjud bo'lgan voqelik idroki asosida shakllanadi. Buni birgina murojaat shakllari miqyosida oladigan bo'lsak, **olampanoh, opoqi, hazrat** kabi konseptual birliklar begona til vakillari uchun yot tushunchadir. Kognitiv modellarning etnomadaniy xususiyatlari haqida gapirayotib, madaniy modellarning vaqt davomida o'zgarib yurishi, bir madaniyatdan ikkinchisiga ko'chishi, o'zgacha mazmun olishi mumkinligini ham aytib o'tmog'imiz joiz. Masalan, O'zbekistonning ba'zi hududlarida onaga nisbatan opa qarindoshlik terminidan foydalanish holatlari kuzatiladi. Boshqa sheva vakillari uchun bu holat mutlaqo begona. Uning bu haqdagi kognitiv bilimlari mavjud emasligi milliy madaniy qadriyatlari bilan bog'liqdir. Biz quyida bir qancha murojaat shakllarini shu asosda tahlil qildik:

Bugungi kunda jamiyatda sodir bo'layotgan ildam o'zgarishlar tilga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Birgina murojaat birliklari misolida qaraydigan bo'lsak, avval qo'llanilgan shakllardan bugungisi tamoman farq qiladi. Millatimizda notanish ayolga murojaat qilinganida **kelinoyi** murojaat birligi qo'llangan. So'nggi yillarda mazkur shakl iste'moli sezilarli darajada kamaydi. Bunga quyidagi omillarni sabab sifatida keltirishimiz mumkin:

- a) yildan yilga oilaviy ajrimlarning ko'payayotganligi;
- b) beva ayollar borligi;
- c) zamonaviylik, ya'ni kelinlik stereotipining yo'qolishi,

kelinlik tashqi

ko'rinishini ifodalovchi etalonlardan, milliy liboslardan foydalanmaslik kelinlar va qizlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirdi.

Shu kabi omillarni inobatga olgan holda kishilarga noqulay hissiy ta'sir o'tkazmaslik uchun **opa** murojaat shaklidan yoki umuman nominatsiya ishtirok etmaydigan birliklardan (**kechirasiz, uzr, ma'zur tutasiz kabi**) foydalana boshlandi. Bu kabi murojaat shakllaridan foydalanilayotganiga sabab notanish so'zlovchida tinglovchi haqida yetarlicha kognitiv bilimlar mavjud emasligi bo'lib, bu bilimlar o'rnini milliy qadriyatlar asosida shakllangan kognitiv va madaniy bilimlar to'ldirishi natijasida yuzaga kelmoqda.

Millatimizda notanish adresatga murojaat qilganda u haqida bilimga, ma'lumotga ega emaslik natijasida qarindoshlik terminlaridan ham foydalaniladi. O'zbeklar tabiatan mehmondo'st, samimiy, rahmdil, ochiqko'ngil xalq ekani bilan ajralib turadi. Shuning uchun notanish kishilarga nisbatan ham qarindoshlik terminlarini qo'llash boshqa shakllarga qaraganda qulayroq. Masalan, **opa, singil, aka, uka, bola, ota, ona, bobo, buvi, xola, tog'a, amaki** singari. Bunday vaziyatda adresatning jinsi va yoshini inobatga olgan holda qarindoshlik termini tanlanadi. Opa, ona, buvi, xola murojaatlarida "ayollik", "adresantga nisbatan yoshi kattalik" semalari orqali nutqda voqelansa, singil murojaatida "ayollik" va "yoshi kichiklik" semasi ustuvorlik qiladi. Aka, ota, bobo, amaki, tog'a murojaatlarida ham "yoshi kattalik", "erkaklik" semalari, uka so'zida "kichiklik", "erkaklik" semalari yetakchilik qiladi. Ko'rinib turganidek, birliklar tinglovchining yoshi va jinsi orqali xarakterlanyapti. Uka va singil murojaatlari boshqa qarindoshlik terminlariga qaraganda begonalarga nisbatan qo'llanishda odatiy murojaatdek tuyuladi. Chunki, tug'ishgan singil yoki ukaga, asosan, ismi bilan murojaat qilish nutqiy odatga aylanib qolgan. Bu ham yillar davomida shakllangan kognitiv bilim va uning asosida yotuvchi qadriyatga dalildir.

Bundan tashqari, yoshi katta, keksalarga murojaat qilganda **bobo, buvi, otaxon, onaxon** muloqot shakllaridan foydalanib kelinganligi barchamizga ma'lum. Ammo, yillar olib kelayotgan o'zgarishlar bu murojaat shakllarining o'rniga **Hoji ota, Hoji ona** va agar o'rta yoshli erkak jinsidagi shaxslarga o'zidan yoshi kichik erkak jinsi vakillari murojaat qilganda **Hoji aka** shakllarini qo'llashni keng tatbiq etmoqda. Bu o'zgarishlarga sabab bo'layotgan omillar:

-birinchidan, bugungi kunda Haj va Umra safarlariga borish yosh-u qari o'rtasida keng yoyilmoqda. Buning hisobiga yurtimizda Hojilar soni ortmoqda, bu, albatta, istiqlol berayotgan keng imkoniyatlar evazigadir.

-ikkinchidan esa bu shaxslarga o'tkaziladigan emotsional ta'sir hisobiga.

Mazkur shakllar bilan murojaat qilinganda tinglovchida nutq egasi haqida o'ziga xos ijobiy taassurotlar uyg'ona boshlaydi va muloqot jarayonidan ko'zlangan maqsadning har ikki tomon uchun ham ijobiy hal qilinishiga yordam beradi. Kuzatuvlarimiz natijasida mazkur shaklning nafaqat ijobiy, balki salbiy mazmun ifodalaganiga ham guvoh bo'ldik. Biz yuqorida tahlil qilgan birlik "din bo'yicha boshqalarga qaraganda ko'proq ma'lumotga ega inson", "diniy yig'inlarda yetakchi", "hurmat va e'tiborga loyiq", "Ollohning nazari tushgan", "kamtarin", "taqvodor", "xulqi bilan ibrat bo'luvchi" semalarini ifodalasa, salbiy va ijobiy shakl o'rtasida bog'lovchi vazifasini "xulqi bilan ibrat bo'luvchi" hamda "yetakchilik" semasi bajarmoqda, ya'ni axloqiy nuqsoni bor shaxslar jamoalarida, xususan, ichuvchi, chekuvchilar orasida axloqsizlikda eng yuqori o'rinda turuvchi, yillar davomida bu yo'ldan chiqmagan kishilarga nisbatan "u shu ishning hojisi" shaklida mazkur shakldan foydalanilishi e'tiborimizni tortdi.

Qadriyatlarimizda farzand uchun qo'llanadigan murojaat birliklari alohida o'rin tutadi. Erkalash maqsadida kichik yoshdagi bolalarga murojaatda hayvon va qush etalonidan foydalaniladi. Masalan, **qo'zichog'im, quyoncham, musicham, qaldirg'ochim** kabi. Bunday murojaatlarning inson tafakkurida ijobiy ottenkaga ega bo'lishiga sabab ularning o'zbek madaniyatida o'ziga xos o'ringa egaligidadir. Musicha va qaldirg'ochdan biri beozorlik, biri esa omad, quvonch timsoli bo'lib, bolalardagi beg'uborlik, beozorlik mazkur qushlarga qiyoslanadi. Ularning insoniyatga do'stligi, qilgan yaxshiligi haqida turli afsonalar mavjud bo'lib, bolalikdan ularni eshitgan xalqimiz ongida ezgulik xabarchisi sifatida o'rnashib qolgan. Bu murojaatlarning kognitiv asosi ana shu afsonalarga borib

taqaladi. Qo'zichoq va quyon etalonidan foydalanishi esa o'zbek millatining uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Xalqimiz qadimdan, asosan, chorvachilik bilan shug'ullangan. Chorvaning har tomonlama keltiradigan foydasi bisyor bo'lib, ulardan biri chorvadan olinadigan mo'ynadir. Yangi tug'ilgan qo'zichoqlarning yungi o'ta mayin, yumshoq va qimmatbaho bo'lgan. Quyonlarning ham yungi mo'yna olish uchun qimmatbaho homashyo hisoblangan (O'zME 2005, 345). Qorako'lchilikdan yaxshi xabardor bo'lgan xalqimiz tafakkuriga bu kognitiv bilimlar qadimdan o'rnashib kelgani bois bolalarning qadr-qimmatliligini ta'kidlash, mayin va nafisligini e'tirof etish maqsadida mazkur birliklardan foydalangan. Bu faqat turkiy xalqlarga xos bo'lib, rus va ingliz madaniyati, umuman, Yevropa madaniyatida quyon qo'rquv ramzi bo'lgani bois ularning murojaat so'zi sifatida qo'llanishi uchramaydi. Shuningdek, o'smir yoshdagi farzandlarga **arslonim**, **lochinim** murojaatlarining qo'llanishi ham xalqning kognitiv bilim salohiyatining natijasidir. Mazkur murojaatlardan chaqaloqqa yoki yosh bolaga nisbatan foydalanilmaydi. Sherlarning ulg'ayib, mustaqil ov qilish, o'zini o'zi himoya qilish qobiliyatiga ega bo'lgan holatiga nisbatan arslon nomi qo'llangani bois yigitlarning voyaga yetgan, biror ishda uddaburonlik ko'rsatgan yoshga yetganida bu murojaat o'rinli hisoblanadi. Har ikki shaklni bog'lab turgan sema "uddaburonlik", "ulg'ayganlik" semalaridir.

Albatta, farzandga bo'lgan mehr-muhabbatda millatimiz beqiyos darajada yuksak o'rinda turadi. Farzandining aziz ekanligini ta'kidlash maqsadida **onam**, **otam**, **ona qizim**, **ota o'g'il** murojaatlaridan foydalanadi. Bu bir qaraganda odatga aylanib qolgan, juda ahamiyatga molik emasdek tuyuladi. Ammo, bizning diqqatimizni tortgan jihati shundaki, **onam**, **otam** murojaat so'zlaridan foydalanishda uning ma'no nozikliklariga ko'p ham ahamiyat berilmayotganligidir. Aslida bu murojaatdan ota-onasidan ayrilgan insonlar ularning o'rniga farzandiga suyanishni, mehr ko'rishni xohlagani boisidan foydalanishgan. Biroq, ota-onasi hayot bo'lganlarhammurojaatshakliningbujihatigaahamiyatqaratmasdan, nutqlarida erkin qo'llashadi. Bunga sabab mazkur shakllar mazmuni yuzasidan kognitiv bilimning to'g'ri shakllanmaganligidadir. Uning mazkur semasidan xabardorlar **ona qizim**, **ota o'g'il** variantidan foydalanib, farzandining ota-onasi singari qadrli ekanligiga urg'u beradilar.

Xalqimiz qadriyatida ayol kishiga ojiza, zaifa, nozik hilqat sifatida qarash ajdodlarimizdan meros bo'lib kelgani bois ayollar o'g'il farzandiga yoki umuman oilasidagi erkak kishilarga suyanib,

ularning g'amxo'rligi ostida yashashga odatlanishgan. Shuning uchun ularning nutqida erkaklarga qaratilgan murojaatlarda **suyanchig'im, tayanchim, polvonim, tog'im** kabi yoki afsonaviy qahramonlarga taqlidan **Alpomishim, Farhodim** kabi o'zining kuchi bilan nom chiqargan timsollar nomi bilan atash holatlari ko'p uchraydi. Erkak kishilarning xususiyati, qudrati, ya'ni oila boshlig'i, oila boquvchisi, ayollar himoyachisi, nasl davomchisi ekani ayollar ongida skript sifatida muhrlanib qolganligi mazkur misollarimizda o'z tasdig'ini topgan. Nafaqat bu misollarda, balki har bir murojaat yaralishida kishilar ongida bolalikdan, hayot jarayonida kechirgan taassurotlari asosida shakllangan skriptlar asos vazifasini bajaradi. Bu birliklarning shevaga xos variantda berilishi til shaxsi namoyon bo'lishida muhim komponentlardan hisoblanadi.

Ayollarga nisbatan qo'llanuvchi murojaat shakllaridan yana biri **katta aya, katta oyi** shakllaridir. Bugungi kunda katta amakining xotiniga nisbatan, shahar hududlarida esa buvisiga nisbatan ishlatilayotgan murojaat shaklining genezisiga ahamiyat beradigan bo'lsak, bugun foydalanilayotgan vazifasidan tubdan farq qilishiga guvoh bo'lamiz. Qadimda mazkur birlik qo'sh xotinli davrda oiladagi to'ng'ich xotinga nisbatan oilaning barcha bolalari va xizmatkorlar tomonidan qo'llangan (<https://uz.m.wiktionary.org/wiki/oyi>). So'z semantikasida "yoshi kattalik", "ota tarafdan oilaga mansublik" semalari mavjud bo'lib, amakining xotini va katta xotinga nisbatan integral qo'llanishini vujudga keltirgan.

Yana bir faol shakllardan biri **birodar** konseptidir. Birodar so'zi asli tojik tiliga mansub bo'lib, ba'zan aka/uka, murojaat shakli o'laroq ba'zi diniy jamoalarda, shuningdek, kasaba uyushma tashkilotlari erkak a'zolari orasida bir-biriga murojaat qilishda qabul qilingan. Mazmuniga ko'ra diniy termin hisoblansa-da, notanish kishilarga nisbatan bu terminni qo'llash ikki tomon uchun ham suhbatning unumdor bo'lishi va tomonlar manfaatiga ziyon yetkazmasligini ta'minlaydi. Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, qipchoqlarda keksa ayollar o'zaro bir-birlariga murojaatda shu termindan foydalanish holatlari ham aniqlandi.

Qipchoq dialekti vakillari nutqini kuzatganimizda ayrim hududlarda **otaga nisbatan aka, akaga nisbatan esa oyna** murojaatidan foydalanilganiga guvoh bo'ldik. Otaga nisbatan aka murojaatidan foydalanilganini sheva vakillari shunday izohlashdi: agar otaning otasi ya'ni bobo hayot bo'lsa yoshi ulug'ligi sababli boboga nisbatan ota murojaati qo'llanadi. Sababi mazkur sheva vakillari tafakkurida ota murojaati muqaddaslik, ulug'lik semalarini

mujassamlashtirganligidadir. Bobo vafot etgandan keyingina dadalariga nisbatan ota murojaatidan foydalanishlari mumkin. Akaga nisbatan oyna deyilganligi zamirida ham oyna bilan bog'liq o'ziga xos kognitiv bilim mavjud. Ma'lumki, oynaga qaragan shaxs o'zining aksini ko'radi. Akaning ham insonga o'zi kabi yaqin qondosh ekanligini ta'kidlash uchun unga nisbatan oyna deya murojaat qilishar ekan.

Shuningdek, **jigarim** murojaati ham, asosan, erkaklar nutqida uchrovchi birlik hisoblanadi. Mazkur shakl yaqin qarindoshlar, ya'ni oila a'zolariga nisbatan qo'llanadi. Ma'lumki, jigar inson tana a'zosi bo'lib, butun organizmni qon bilan ta'minlash vazifasini bajaradi. Qon inson tanasi hayotiyiligini va yashovchanligini, boshqa organizmlar faoliyatining normal bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari jigar organism detoksi hisoblanadi, ya'ni tanani zaharli toksinlardan tozalab turadi. Organizm uchun muhim qism bo'lgani sababli u kognitiv ongda faollashib murojaat shakli sifatida tanlangan. Aka-uka, opa-singillarning bir-biriga nihoyatda, yaqin va ahamiyatlilikini, qadr-qimmatlilikini ta'kidlash maqsadida mazkur shakl murojaat shakli sifatida qo'llanadi.

Tadqiqotlar jarayonida biz avval individual alohida shaxslar ongida kechayotgan lisoniy va kognitiv jarayonlarni kuzatsak-da, pirovardida ularning umummilliy xususiyatlarini tavsiflashga o'tamiz. Kognitiv jarayonlarni milliy madaniyat bilan bog'lovchi asosiy vosita tildir. Shu sababdan kognitiv tilshunoslik uchun lisoniy va kognitiv ong jarayonlarini milliy madaniyatda yaratiladigan, vujudga keladigan faoliyat shart-sharoitlari bilan bog'lab o'rganish nihoyatda muhimdir. Umuman olganda til va ong madaniyatdan yiroq, holi tarzda mavjud bo'la olmaydi. Ular bizning ijtimoiy tajribalarimiz, ajdodlarimizdan o'zlashtirgan an'analarimiz, qadriyatlarimiz natijasidir. Agarki, til bizning qanday fikrlayotganimizni anglatrsa, madaniyat ma'lum bir jamoa nima qilayotganligi va nima fikrlayotganligini ifoda etadi (Safarov 2006, 32).

O'zbek tilida ayollar nutqida **-im egalik qo'shimchasining erkalash ma'nosining** ifodalanishida faolligi seziladi. Murojaat shakli bilan qo'llanuvchi egalik affiksi egalik ma'nosiga xususiy ottenka yuklash bilan nutqning emotsional-ekspressiv qiymatini, ta'sirchanligini oshiradi (O'TIL 1981, 30). O'zbek tilida o'zlik olmoshining o'zimning qo'zichog'im, o'zimning toychog'im, o'zimning asalim kabi birinchi shaxs birlikdagi ko'rinishi ishtirokidagi erkalash ma'nosini ifodalovchi ayrim leksik birliklar, yuklamalar, his-hayajonni ifoda etuvchi til birliklari, takrorlash, metafora kabi

stilistik vositalarasosan ayollar nutqida fikrning ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi seziladi. Bundan tashqari, ayollar va erkaklar nutqining o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri ayollarning erkaklarga qaraganda nutqiy vaziyatda ko'proq xushmuomalalik, odoblilik hamda hurmat ko'rsatishga harakat qilishlari yaqqol sezilib turadi. Masalan, *Voy uyingga bug'doy to'lgurlar, voy ko'paygurlar, kela qolinglar, - deydi ovozi tovlanib* ("Dunyoning ishlari").

Ayollar tomonidan erkak kishilarga nisbatan qo'llanuvchi nomlar orasida **qarindoshlik terminlari + III shaxs egalik qo'shimchasi** qolipida murojaat qilish holatlari ko'p uchraydi. Masalan, **otasi, dadasi, bobosi, buvasi, bobojonisi** singari. Otaga yaqin oila a'zolariga nisbatan ularning ismini qo'shib murojaat qilish hurmatsizlik hisoblanadi. Erkaklarga nisbatan qo'llanuvchi bunday muloqot shakllarida *"farzandlarining otasi", "nabiralarining bobosi", "hurmat", "yosh pog'onasining yuqori bosqichiga mansublik", "qarindoshlik", "yaqinlik"* kabi skriptlar asos bo'ladi.

Respublikamizning ba'zi hududlarida yoshi katta, keksalarga nisbatan **momo, bobo** qarindoshlik terminidan foydalaniladi. So'zlarning denotat semasida yoshi kattalik, qarindoshlik ma'nolari yetakchilik qiladi. Navoiy, Samarqand viloyatining ba'zi hududlarida amakiga nisbatan bobo, amakining xotiniga nisbatan momo murojaatidan foydalanilishiga guvoh bo'ldik. Bu murojaatning kimga nisbatan qo'llanayotgani faqat shu hudud kishilarigagina, ya'ni sheva egalarigagina ma'lum. Til egasining kognitiv bilimlar bazasida denotat sema dominant bo'lsa, keyinchalik bu so'zning referensial ma'nolarini ongli ravishda rad etadi, ya'ni notanish sheva vakili uchun so'zdagi yondosh ma'nolarni o'zlashtirishda to'siq paydo bo'ladi.

Hamshira murojaat birligi bugungi kunda tibbiyot xodimlariga nisbatan qo'llanib kelmoqda. So'zning etimologiyasiga e'tibor bersak, forscha مشیر so'zidan o'zlashgan va birga sut emishgan: opa yoki singil ma'nolarini anglatadi. XX asrga qadar o'zlashgan ma'no saqlangan, keyinchalik shifoxonada ishlovchi, o'rta tibbiyot ma'lumotiga ega bo'lgan xodim semasi bilan iste'molga o'zlashgan. Bu ikki birlikni birlashtiruvchi jihat opa-singilning bir-biriga yaqinligi, yordamchilik xususiyatlari bo'lsa, doktorga yordam beruvchi tibbiyot xodimlari asosan ayollardan iborat bo'lgani uchun mazkur termin murojaat shakli sifatida qo'llana boshlangan.

Yurtimizning ba'zi hududlarida **onaga nisbatan opa** murojaat shaklidan foydalanish holatlari uchraydi. O'TILda opa

so'ziga quyidagicha izoh beriladi:

1. Bir ota-onadan tug'ilgan farzandlar ichida o'zidan kichiklarga nisbatan katta qiz.

2. O'zidan katta, ba'zan kichik ayollarga nisbatan hurmat yuzasidan ularning ismiga qo'shib ishlatiladi.

